



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha*
va maktab ta'limi bo'limi
tasarrufidagi

___ *-umumiy o'rta ta'lim maktabi*
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yili 11-sinf
o'zbek tili fanidan III chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 11-sinf o‘zbek tili fanidan III chorak uchun taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab sayohat. Grammatika: Badiiy uslub	1		
2.	Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab sayohat. Grammatika: Badiiy uslub	1		
3.	Adabiy o‘qish: Herman Hessening hayoti va ijodi. Cho‘l bo‘risi hikoyasidan parcha	1		
4.	Tadbirkorlik faoliyati. Grammatika: Publitsistik uslub	1		
5.	Tadbirkorlik faoliyati. Grammatika: Publitsistik uslub	1		
6.	Adabiy o‘qish: Rahmat Fayziyning hayoti va ijodi. Hazrati inson. Romanidan parcha	1		
7.	Kelajakka yo‘i. Grammatika: Rasmiy uslub. Ish qog‘ozlari: Tavsifnoma	1		
8.	4-BSB. (25 ball) Esse yozish	1		
9.	Kelajakka yo‘i. Grammatika: Rasmiy uslub. Ish qog‘ozlari: Tavsifnoma	1		
10.	Saida Zununovanning hayoti va ijodiy faoliyati. Adabiy o‘qish: Saida Zunnunovanning “Qizimga” she’ri	1		
11.	O‘zbekiston kelajakda	1		
12.	Grammatika: Uyushiq bo‘laklar. Muomala odobi: Diplomatik madaniyat	1		
13.	Ziyraklik	1		
14.	Grammatika: Ajratilgan bo‘laklar. Ish qog‘ozlari: Tavsifnoma.	1		
15.	Buyuk ajdodlarimiz	1		
16.	5-BSB. (25 ball) Og‘zaki nutqini tekshirish	1		
17.	Grammatika: Kiritmalar.	1		
18.	O‘lkamizning asl farzandlari	1		
19.	Grammatika: Undalma. Ish yuritish qog‘ozi: Tarjimayi hol	1		
20.	Orzumdagi kasb	1		
21.	Grammatika: Monologik matn.	1		
22.	Hunarning sharofati	1		
23.	Grammatika: Dialogik matn. Muomala odobi: Hunar o‘rganish madaniyati	1		

24.	Kino tadbirkorligi.	1		
25.	Grammatika: Matn bilan ishlash. Muomala odobi: San'atni qadrlash madaniyati	1		
26.	Grammatika: Matn bilan ishlash. Muomala odobi: San'atni qadrlash madaniyati	1		
27.	Sinfдан tashqari o'qish. X. To'xtaboyev. "Sariq devni minib"	1		
28.	Takrorlash.	1		
29.	3-CHSB. (40 ball) Test topshiriqlari	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab sayohat. Grammatika: Badiiy uslub

Maqsadlar:

a) ta’limiy: o‘zbek tilida egallagan bilimlarini og‘zaki va yozma nutqda mustaqil qo‘llashga o‘rgatish, o‘zbek tilidan ijtimoiy vaziyatlarda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali mustaqil ishlay olish qobiliyatini shakillantirish.

b) tarbiyaviy: og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini o‘stirish, yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalar haqida ma’lumot berish.

d) rivojlantiruvchi: vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiborli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilishga o‘rgatish.

Milliy o‘quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og‘zaki nutq: atrofdegilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlay oladi; o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildiradi;

Yozma nutq: bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so‘zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o‘quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, “O‘qituvchi kitobi”, xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II.Yangi mavzu bayoni:

Matnni tinglang va qaysi uslubda yozilganini tushuntiring.

BOZOR VA PUL

Bozor – insonlarning oldi-sotdi muomalasi amalga oshiriladigan joy.

Pul ixtiro qilingunga qadar odamlar oldi-sotdi muomalasini o‘zaro mol ayirboshlash orqali bajarar edilar. Keyinchalik barter deb nomlangan bu usulda har kim o‘z molini qiymatiga yarasha boshqa bir molga (don-dun, kiyim-kechak, ro‘zg‘or ashyolari va hokazo) almashtirib ketar edi. Hozir ham bu usul katta korxonalarda, firmalarda o‘zaro bitim tuzish orqali amalga oshiriladi. Pul ixtiro qilingach, u savdo-sotiq muomalasining asosiy vositasiga aylanadi. Pul avval oltin, kumush tangalar shaklida zarb etilgan, keyinchalik qog‘oz pullar kashf etilgan. Qog‘oz pullarning qiymati jahondagi barcha mamlakatlarda eng qimmatbaho metall – oltinning qiymati bilan belgilanadi. Qaysi mamlakatda sanoat, ishlab chiqarish rivojlansa, ishlab chiqarilgan mahsulotlar xaridorgir bo‘lsa, shu mamlakat pullariga talab katta bo‘ladi. Bu uning pullari qiymatining ortib ketishiga olib keladi. Pul qiymatining pastga tushib borishi esa inflatsiyaga (pulning qadrsizlanishiga) olib keladi.

Savollarga javob yozing va izohlang.

1. Matn mazmuni asosida bozor va pulni tavsiflang.

2. Matndan kirish birikmali gaplarni ko‘chirib yozing va yozilishini tushuntiring.

.....
3. Qog‘oz pullarning qiymati va inflatsiya haqida tushuncha bering.

Berilgan soʻzlar va birikmalarni ona tilingizga tarjima qiling.

Iqtisodiy faoliyat, moliya bozori, xarajatlar rejasi, sof daromad, savdo aylanmasi, foyda, tejab-tergash, sotib olish imkoni, hamkorlik.

Iqtisodiy faoliyat	...

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Qavsdagi soʻzlar oʻrniga tadbirkor va tadbir korlik soʻzlaridan mosini qoʻyib koʻchiring.

(Предприниматель)ishning koʻzini biladigan kishidir. Qayerda muammo boʻlsa, (предпринимательство)yordam beradi. (Предприниматели) qarovsiz joylarni obod qiladilar, oʻzlariga ham, xalqqa ham foyda keltiradilar. Shuning uchun respublikamizda (предпринимательство) rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Hukumatimiz tomonidan (предпринимательство)rivojlantirish boʻyicha bir qator qonunlar, qarorlar qabul qilinmoqda.

V.Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbat kartochkalari bilan ragʻbatlantiriladi.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: yangi mavzuni toʻliq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

OʻIBDOʻ: _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Buyuk ipak yo'li bo'ylab sayohat. Grammatika: Badiiy uslub

Maqsadlar:

a) ta'limiy: o'zbek tilida egallagan bilimlarini og'zaki va yozma nutqda mustaqil qo'llashga o'rgatish, o'zbek tilidan ijtimoiy vaziyatlarda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali mustaqil ishlay olish qobiliyatini shakillantirish.

b) tarbiyaviy: og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini o'stirish, yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalar haqida ma'lumot berish.

d) rivojlantiruvchi: vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiborli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilishga o'rgatish.

Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og'zaki nutq: atrofdegilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

Yozma nutq: bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi.

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi, jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini ayta oladi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: o'quv dasturi, dars rejasi, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. Yangi mavzu bayoni:

TURKISTONDA PULNING JORIY ETILISHI

Turkiston mintaqasida pul muomalasining joriy etilishi juda qadimiy tarixga ega. Mashhur tarixchi Gerodot: "Bilishimcha, eng birinchi bo'lib lidiyaliklar tanga zarb etishgan hamda oltin va kumush tangalarni muomalaga kiritishgan", – degan fikrni aytib o'tgan. Biroq Turkiston hududida miloddan ilgarigi bir minginchi yillardayoq yombilar (oltin va kumush quymalar) muomala vositasida qo'llangani aniq dalillar bilan isbotlangan. Ushbu yombilar tangalar kabi o'zlarining hajmi va og'irligiga ko'ra farqlangan. Demak, pul muomalasi ilk bor Turkiston mintaqasida paydo bo'lgan, so'ng boshqa o'lkalarga tarqalgan.

Iqtisod odobi

1. Mol-u dunyosi ko'p bo'lgan kishi boy emas, balki isrofdan saqlanib iqtisod tejamini bilgan kishi boydir. Shuning uchun foydasiz yerlarga va yaramas ishlarga bir tiyin ham sarf qilmang.

2. Bir narsani bir yo'la ko'proq olib qo'ymang. Agar zarurligi sababli nasiyaga olgan bo'lsangiz, pulini tezroq topshiring. Qarzdor bo'lmang.

3. Oladigan narsangizning bahosini yaxshi biling, olishda aldanib qolmang. Kerak bo'lgan narsangizni, mumkin bo'lsa, o'zingiz qarab oling. O'zingizga kerak bo'lmagan narsalarni arzonligiga qiziqib olib qo'ymang.

4. Kirim-chiqimlaringizni bir daftarga yozib, bu daftarni har vaqt ko'zdan kechirib turing, chunki bu daftar iqtisod va tadbir o'lchovidir. Sarflagan pullarini hisoblab turgan kishi keraksiz yerlarga pul sarflashdan o'zini saqlaydi.

5. Chiqimingiz kiringingizdan ortiq bo'lmasin. Chiqimingiz ortiqcha bo'lsa, qayg'u keltiradi.

6. Juda zarur bo'lmaganda birovdan qarz olmang. Kishining kimligini sinamasdan turib unga qarz bermang.

("Donishmandlar odob-axloq to'g'risida" kitobidan)

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Pul muomalasining kelib chiqishi haqida soʻzlab bering.
2. Turkiston mintaqasida pullar qanday atalgan?
3. Matndagi sonlarning maʼnolarini izohlang.

V. Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbat kartochkalari bilan ragʻbatlantiriladi.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: Oʻzingiz bilgan savdo turlari haqida maʼlumot yozing.

OʻIBDOʻ:

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

59 listdan iborat 11-sinf o'zbek tili fanidan III chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**